

## QADIMGI SURXON VOHASI ARXEOLIGIYASI

*Madrimov Og'abek Javlonboy o'g'li*  
*Termiz Davlat Universiteti Tarix fakulteti*  
*arxeologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxon vohasidagi qadimgi yodgorliklar, madaniyatlar, ularning o'rganilish tarixi va xarakterli jihatlari, qadimgi tosh, o'rta tosh, bronza davrlariga oid tadqiqotlar hamda hozirgi kundagi arxeologik axborot vositalari haqida ma'lumot va muhokamalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Teshiktosh, Amir Temur g'ori, Machay, Zaroutsoy, Sopolli, Jarqo'ton, Ko'zali, Mo'lali, Bo'ston, Kuchuktepa.

Qadimgi Surxon vohasi o'ziga xos tarixiy jihatga ega bo'lgan viloyatlardan biri hisoblanadi. Surxondaryoning tabiati serquyoshli kunlari bu yerda qadimdan aholi yashab kelganligi va o'ziga xos baland ko'rkam tog'lari bilan o'z tarixiga ega. Xususan, Surxon vohasi ko'hna qadamjolarga, tarixiy va arxeologik yodgorliklarga juda boy hudud hisoblanadi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra Surxondaryo viloyatida tarixiy va arxeologik yodgorliklar 500dan ortiq qayd etilgan. Surxon vohasi arxeologiyasining o'rganilish tarixi XX asrning 30-40-yillarida boshlangan. Xususan bu davrga kelib, Surxondaryoda Poleolit davriga oid g'or topilgan. Ushbu g'or Boysun tumanida joylashgan bo'lib, u 1936-1938-yillarda rus olimi A. P. Okladnikov tomonidan ochib o'rganilgan. Bu go'r yodgorligining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda O'rta Osiyodagi ilk diniy qarashlar o'z aksini topadi.

“Qanday qilib desak?” – Bu savolga javob tariqasida Teshiktosh g'origa ko'milgan neandertal bola qabrini aytishimiz mumkin. Qabr atrofiga eshki shoxxlari qadam chiqilgan. Bu dastlabki diniy e'tiqod belgisi hisoblanadi. Shu davrdan boshlab insonlar narigi dunyo haqidagi tasavvur qila boshladi. Chunki insonlar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan hodisalar haqida o'ylay boshlaganlar. Masalan vulqon otilishi, yil fasllarining almashishi, momoqaldiroq va yashin chaqishi haqida o'ylay boshladilar. Ba'zi bir arxeologik tadqiqotlarga ko'ra Teshiktosh g'oridagi neandertal 8-9- yashar bola deb beriladi. Lekin boshqa arxeologik manbalarda qiz bola deb beriladi. Xususan, Teshiktosh g'oridan topilgan bolani o'rganishda antropolog M.M. Gerasimov bo'laklarga bo'linib ketgan bolaning suyagini o'g'il bolaga tegishli deb fikr bildiradi. Teshiktosh odami Yevropoid irqiga mansubligi aytilgan. “Bu masalada ham tortishuvlar mavjud va bu masala ustida olimlar tadqiqot olib borishi kerakmi?” – deb o'ylayman. Ayniqsa, hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

Shu davrga oid ochilgan yodgorliklardan biri Amir Temur g'ori hisoblanadi. Ushbu g'or 3ta madaniy qatlamdan iborat. Birinchi qatlam O'rta Paleolit, ikkinchi va uchinchi qatlamlar esa So'nggi Paleolit davriga oid. Bu yodgorlikdan turli xil mehnat qurollari: nucleus, tosh paraqalari va gulham izlari topilgan.

Mezolit davri o'rta tosh davri mil. avv. 12- 7-mingyilliklarni o'z ichiga oladi, bu davrga kelib buyuk uzlik davri tugadi va Galotsin davri boshlandi. Bu davr insonlar hayotida kata o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, insonlar ov quroli o'q-yoydan foydalana boshladilar. O'q-yoyning kashf etilishi chopqir hayvonlarni ovlash imkonini berdi. Endilikda insonlar o'ljalarni qishga jamg'arib olib qo'yadigan bo'ldi. Insonlar ilk bor hayvonlarni qo'lga o'rgata boshladilar. Insonlar itni qo'lga o'rgata boshladi. O'rta Osiyoda Mezolit davriga oid yodgorliklar O'zbekiston hududidan ham topib o'rganilgan. Shular qatoriga Machay, Zaroutsoy, Qo'shilish, Obishir yodgorliklari eng kattalaridir. Machay yodgorligi Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan Mezolit davrining so'nggi bosqichiga oid akademik O'tkir Islomov tomonidan o'rganilgan. G'or makon ikkita madaniy qatlamdan iborat. Ulardan ko'p sonli tosh qurollar, hayvon va odam suyaklari topilgan. Suyaklarning ko'pchiligi tog' echkisi, arxar, qo'y va echki suyaklari topilgan. Makondan topilgan odam suyaklariga ko'ra bu yerda yevropoid irqining Sharqiy O'rtayer dengiziga kiruvchi dolixokran boshi uzun yuzi qisqa aholi vakillari yashagan. Zaroutsoy hozirgi kunda Zaroutkamar qoyatosh suratlari deb ham ataladi. Surxondaryo viloyati Sherobod shahridan 30 km. shimoli sharqda Ko'hitan tog'larining janubi sharqiy yonbag'rida Zaroutsoy bo'yida joylashgan. Zaroutsoyda madaniy qatlam uchramaydi. Tasviriy san'at na'munalari qoyaning shifti va yon devorlariga qizil bo'yoqda chizilgan. Tasvirlarda asosan ov manzarasi aks ettirilgan. Tasvirlar 3ta lavhadan iborat. Birinchi lavhada ovchilarning yovvoyi buqalarga hujumi tasvirlangan va hayvondan 2tasini qochishga urinayotgan holati tasvirlangan. Ikkinchi lavhada esa jarohatlangan jayronning ovchilardan qochishga harakat qilayotgan tasviri aks ettirilgan. Uchinchi lavhada esa yovvoyi echkilarni ov qilish manzarasi chizilgan. O'ziga xos xususiyati shundaki, ovchilarning ayrimlari boshiga niqob kiyib olgan, boshqalari esa sxematik shaklda chizilgan. Menimcha bu belgilar va niqob yoki diniy e'tiqod belgisi yoki hayvonlarni qo'rqitish ma'nosida qilingan ish bo'lishi mumkin. Madaniy qatlam uchramaydi dedik. Chunki bu g'orda asosan devorlar shiftiga yuqori tog'ning qismlariga chizilganligi kuzatiladi. Paleolit davridan farqli jihati shuki, ularning diniy e'tiqodi va qaysi hayvonni ovlash jarayoni aniq mufassil tasvirlangan.

Bronza davri mil. avv. 3-2-mingyilliklarni o'z ichiga oladi. Bronza mis qalay qo'rg'oshin va ruxni qo'shib hosil qilinadi. Umuman Bronza davri 3 davrga: ilk, o'rta va so'nggi davrlarga bo'linadi. O'zbekiston hududida o'rta va so'nggi davrlarga oid madaniyat yodgorliklari uchraydi. Surxondaryoda Bronza davriga oid O'zbekistonda ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan. Bu madaniyat sopolli madaniyatdir. Bu

yodgorlikni birinchi bo'lib 1968-yilda N. Albaun topgan. Keyinchalik 1969-1974-yillarda Ahmadali Asqarov tomonidan o'rganilgan. Ahmadali Asqarov ustozimizning tadqiqot ishlari natijasida Sopoltepa yodgorligining maydoni mudofaa inshootlari, antropologiyasi va qabr qo'rg'onlari ochib o'rganilgan. Sopollitepa yodgorligi Muzrabod tumanida Ulanbuloqsoy bo'yida joylashgan. Uch qator mudofaa devoridan o'ralgan sakkizta kvartalga bo'lingan umumiy maydoni 4 gektardan iborat. Sopolli tepadan jami 138ta qabr topib o'rganilgan. Ularning 125tasida 1ta 13tasida esa juft mayit topilgan. Shuningdek 4tasiga hayvon dafn qilinga, 6tasi esa kenotaf qabrlardan iborat.

Sopolli madaniyati 5ta bosqichdan iborat va ular quyidagilar:

1. Sopolli bosqichi mil. avv. 2150-1900-yillar
2. Jarqo'ton bosqichi mil. avv. 1900-1600-yillar
3. Ko'zali bosqichi mil. avv. 1600-1450-yillar
4. Mo'lali bosqichi mil. avv. 1450-1250-yillar
5. Bo'ston bosqichi mil. avv. 1250-1000-yillar

Shu beshta bosqichdan Jarqo'ton bosqichi yodgorligi muhimdir. Jarqo'ton yodgorligi Sherobod tumani bo'stonsoyning chap sohilida joylashgan. Maydoni 100gektar. Arkining maydoni 3-gektar. 20gektar maydonini qabriston egallaydi. Jarqo'tondan baland tagkursi ustida dunyo tomonlariga moslab qurilgan ibodatxona majmuasi 44.5\*60metr manzilgohning mahobatli imoratlaridan biri hisoblanadi. Majmua ibodatxona, xizmatkorlar yashash xonalari va xo'jalik qismidan tashkil topgan. Ibodatxonada muqaddas olov mehrobi asosiy o'rin tutgan. Ibodatxona mudofaa devoir bilan o'ralgan. Qadimgi sharq xalqlari diniy tasavvurida olov insonning tanasini yovuz ruxlardan halos etuvchi suv esa ulardan tozalovchi vosita vazifasini bajargan. Jarqo'ton ibodatxonasi yaqinida vino tayyorlanadigan maxsus xonaning o'rni ochib o'rganilgan. Ehtimol jarqo'tonlik aholi muqaddas ichimlik sifatida shu vinoni iste'mol qilgan bo'lishi mumkin. Ma'lumki, O'rta Osiyoning qadimgi xalqlarida muqaddas ichimlik mitraga sig'inish odatini bildirgan. Jarqo'tondan topilgan ibodatxona Murg'ob vohasining Go'nurtepa ibodatxonasi bilan umumiylikka ega. O'rta Osiyoning bronza davri aholisi o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ularning diniy qarashida muqaddas olov va ichimlik kulti yuqori o'rin egallagan. Jarqo'ton qabristoni 20 gektarni egallaydi. Sopolli qabrlardan farqi shundaki, Jarqo'tonda qabrlar uy ichiga emas alohida qabristonga qo'yilgan. Bu yerdan olov ibodatxonaning topilishi diniy boshqaruv bo'lganidan dalolat beradi va O'zbekistonda ilk shahar alomati ko'zga tashlanadi.

Jarqo'tonda o'zbek davlatchiligi shakllanganligidan dalolat beradi. Bu yerda diniy boshqaruv bo'lgan. Eng muhim jihati: Sopolli va Jarqo'tondan piktografik belgilar yozuv topilgan. Sopoldan 29ta Jarqo'tondan 47ta belgilar topilgan. Olimlar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Birinchi fikr klol ustalarining belgisi, ikkinchisi oilalarning

totem belgisidir. Chunki qadimgi sharq tarixiga etibor bersak engbqadimgi yozuvlar ham rasm ko'inishida b'lganligini ko'ramiz.

Surxondaryo hududida hozirgi kunda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar juda keng ko'lamli. Bugungi kunda Surxondaryoda ko'plab qo'shma ekspeditsiyalar faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston-Fransiya, O'zbekiston-Chexiya, O'zbekiston-Rossiya, O'zbekiston-Germaniya, O'zbekiston-Xitoy, O'zbekiston-Yaponiya ekspeditsiyalari faoliyat yuritmoqda. Eski Termizning buddaviylik ibodatxonalari Fayoztepa va Qoratepa O'zbekiston-Yapon ekspeditsiyasi tomonidan o'rganildi. Yodgorlikni o'rganishda zamonaviy GISS axborot texnologiyalaridan foydalanigan. Yodgorlikning topoplani koordinatasi chizilgan va aniqlangan. Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekiston-Fransuz va O'zbekiston-Chex Sherobod tumanida so'ngi Bronza va Ilk Temir davriga oid yodgorliklarni aniqlab fanga kiritmoqdalar. Shu yodgorliklar ro'yxatiga Turktepa, Kayrittepa va Burguttepa yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarni o'rganish davomida O'zbekiston-Fransuz ekspeditsiyasi tomonidan zamonaviy axborot vositalaridan foydalanilgan. Xususan teodolit, raqamli fotoapparat, GISS, arxeomagnet usullaridan foydalanilgan. 2023-yilda eski Termizshoxlar saroyida ruslar bilan hamkorlikda Termizshoxlar saroyini qazib ochdik. Shu ekspeditsiyada o'zim ham qatnashdim. Ushbu ekspeditsiyadan olgan taassurotlarim juda kata va beqiyos. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan biz ham foydalandik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'rta Osiyo arxeologiyasi Jabbor Kabirov Anatoli Sagdullayev 1990-yil
2. Qadimgi Surxondaryo tarixidan lavhalar 2016-yil
3. Markaziy Osiyo arxeologiyasi Rahmon Ibragimov 2013-yil
4. 5-UMKU 1974-yil A. Asqarov
5. Rahmon Ibragimov 2021-yil Arxeologiya qo'llanma
6. Jahon arxeologiyasi Javohir Annayev 2021-yil
7. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi A. Asqarov 2015-yil
8. O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari Sh. Shaydullayev desertatsiya
9. Eng qadimiy shahar A. Asqarov 2001-yil
10. Sh. Shaydullayev Северная Бактрия в эпоху раннего железного века 1997-yil
11. Oks sivilizatsiyasi A. Boqiyev A. Shaydullayev Z. Yo'ldosheva 2015-yil